

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA VATANPARVARLIK TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH

p.f.n.X.Norbo'tayev (TermDU)

Mustaqil diyorimizda xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishni milliy g'oya va milliy qadriyatlarni tiklash ayniqsa yosh avlod tarbiyasiga alohida g'amxo'rlik ko'rsatish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Milliy istiqlol g'oyasi oshkora tantana qilinayotgan hozirgi davrda respublikamizning siyosiy barqarorligini taminlash ko'p jihatdan fuqarolarning, ayniqsa kelajagi buyuk yurtimizning bo'lg'usi vorislari hisoblangan yoshlarni ma'naviy va madaniy barkamol inson qilib tarbiyalashga bog'liq bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti IA.Karimov takidlaganlaridek: "Inson shaxsini, uning yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish, uchun milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish, yosh avlodni boy madaniy merosimiz hamda tarixiy qadriyatlarimizga hurmat-e'tibor, mustaqil vatanimizga mehr- muhabbat ruhida tarbiyalash talablari oldimizga muhim vazifalarni qo'yimoqda"¹. Shunday muhim vazifalardan biri yosh avlodni madaniyatli inson qilib tarbiyalashdan iborat.

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar barkamol inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, xalqimizning milliy manfaatlariga, ezgu maqsadlarga to'la mos keladi. Milliy istiqlol mafkurasini, birinchi navbatda, hayotga endigina qadam qo'yayotgan yoshlar ongida yangicha ma'no va mazmuni baxsh etishga, unda hayotiy pozitsiyani shakllantirishga qaratilgandir. Chunki, yoshlar milliy g'oya timsolidagina mamlakat taraqqiyoti, yurt tinchligi va xalq faravonligini taminlashning muhim vositasini ko'radi. Yoshlar tabiatan g'oyalarga qiziquvchan va ularga tez beriluvchan bo'ladi. Yuksak ma'naviyatli insonlar madaniy turmush qurish yo'llarini ham biladilar. Har qanday ma'naviy bisot yuksak madaniyatli didning mahsuli sifatida o'zining oliyanobligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham ma'naviy go'zallikning tub mazmunida yuksak insoniy did, yuksak madaniyat yotadi.

Mustaqillik yillarida ma'naviy tarbiyaning milliy asoslarini tiklash shu milliy madaniy meros hamda qadriyatlardan samarali foydalanishga bo'lgan

ehtiyoj kuchayib, O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoillaridan biri darajasiga ko'tariladi.

An'anaviy sodiqlik tufayli yoshlarda manaviy javobgarlik g'ururi shakllanib boradi. Ularda vatanga muhabbat, mehr-oqibat, axloq, odob kabi ma'naviy estetik fazilatlar takomillashib boradi.

Ma'naviyat odamning ruhiy milliy olamining majmuidir. U jamiyat, millat yoki ayrim bir kishining hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushunchadir. Ma'naviyat keng manoda ma'rifat, madaniyat tushunchalarini o'z ichiga qamrab oladi. Axloq, xulq va atvor so'zlari ham ma'naviyatning tub mazmunidan kelib chiqqan arabcha so'z bo'lib, ular o'zbek tilida ham o'z ma'nosida ishlatiladi. Axloq bizning hayotimiz va ongimizga faol tasir etadi, kishilik suhbatlari tomonidan yaxshilik-yomonlik, adolat-adolatsizlik, mehr bilan zulm o'rtasidagi insoniy munosabatlardagi maqbul va nomaqbul, man etilmaydigan va man etiladigan hatti-harakatlarni belgilab beradi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya, bu, millat va jamiyat tomonidan yaratilgan barcha ruhiy va aqliy ne'matlarning shaxs tomonidan o'zlashtirilib, undan foydalangan holda o'z axloqini barkamollashtirishga erisha olganligi darajasini ko'rsatuvchi mezondir. Biz, o'qituvchilar yosh avlodni tarbiyalashda muhim rol o'ynaymiz. Har bir millat o'zining buyuk kelajagini yosh avlodni barkamol etib voyaga yetkazish bilan taminlaydi. Buning uchun har bir shaxs o'zini anglab etishi, kamolot yo'lini, merosimizning dunyo ahamiyatiga molik ohanglarni bilishlari, tasavvurga ega bo'lishlari, bahs yuritishlari, ma'naviy ehtiyojlarimizning zarur omili ekanligini chuqur anglashlari hozirgi davr talabidir.

Vatanparvarlik yuksak e'tiqod, vatan va millat oldidagi mas'uliyat, yuksak burchni anglashdir. Ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan "Vatanni sevmoq iymondandir", - degan hadis zamirida ham huddi shunday mazmun mujassam. Agar uzoq tariximizga nazar tashlaydigan bo'lsak, vatanga e'tiqod tuyg'usi xalqimiz tomonidan qadimdan e'zozlanib kelinganining guvohi bo'lamiz. Ajdodlarimiz orasidan yetishib chiqqan mashhur insonlarning xatti-harakatlari, vatan ravnaqi yo'lida chekkan zahmatlarini, bizgacha yetib kelgan asarlari hamda

xalq og'zaki ijodi orqali bilib olishimiz mumkin. Al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Umar Hayyom, Yusuf Xos Hojib, At-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur, Uvaysiy, Nodirabegim, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Anbar Otin, Behbudiy, ChoTpon kabilaming hayoti va ijodiy faoliyati, ayniqsa, vatanga e'tiqod haqidagi g'oyalari bugungi yangi jamiyatimiz taraqqiyoti uchun nihoyatda ahamiyatlidir.

Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan odob-o'gitlar, pand-nasixatnomalar, diniy-falsafiy kitoblarda vatanga e'tiqod qilishga keng o'rin berilgan. Keyingi yillarda yurtimizda bo'layotgan o'zgarishlar tufayli bu manbalarni o'rganishga va ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etishga e'tibor kuchaydi. Ayniqsa, asrlarga tengdosh yozma bitiklar va xalq og'zaki ijodida, ya'ni afsonalar, ertaklar, rivoyatlar, maqollarda yuksak insoniy tuyg'ular ulug'lanadi. Bu manbalarning yosh avlodni vatanga e'tiqod ruhida tarbiyalashda ahamiyati nihoyatda kattadir. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni milliy tarixiy asoslarini o'rganib chiqar ekanmiz, eng avvalo, "Avesto"ning asrlar davomida insonlarni poklik, ilm egallash, mehnatsevarlik, tabiatni asrash kabi insonparvarlik g'oyalari da'vat etib kelganligiga guvoh boTamiz. Bu bitikda vatanni sevish, o'zlari yashab turgan zaminni asrab-avaylash, unga e'tiborli bo'lish, vatanga e'tiqod haqidagi g'oyalar ham mavjudki, shubhasiz, bu g'oyalar o'smir yoshdagi o'quvchilarda vatanga e'tiqodni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. "Avesto"da ona zamin, oila, vatan tushunchalari muqaddas sanalgan, shuningdek, ular zaminni sof saqlash uchun murdalami yerga ko'mishni qattiq qoralaganlar. Ular murdalami maxsus mis idishlarda dafn qilishni yo'lga qo'yishgan. Shubhasiz, bu kabi qoidalarga ajdodlarimiz rioya qilganlar, ona yerni muqaddas deb bilganlar va uni ifloslanishdan asraganlar.

Darhaqiqat, millat taqdiri bilan yashash, vatanga e'tiqod, adolat, insoniylik tuyg'usi yuksak darajada shakllangan, milliy g'urur va iftixorimizga aylangan buyuk bobokalonlarimizning o'gitlarida o'z aksini topdi. Buni biz haqiqiy vatanga e'tiqodli yurtdoshlarimizdan biri Shayh Najmiddin Kubrofaoliyatida ko'rishimiz

mumkin. Shayh Najmiddin Kubro yoshlarning vatanga muhabbatini oshirish bilan birgalikda, bir-birlariga mehr-oqibatli bo'lishga undadi. U haqiqiy vatanga e'tiqodli, el va xalqini ardoqlovchi, butun Xorazm xalqini o'zining jigarbandlari qatorida ko'ruvchi inson edi. Shayh Najmiddin Kubro hayoti va asos solgan "Kubroviya" tariqati orqali uning vatan, millat qadriyatlariga naqadar sodiq inson ekanligiga guvoh bo'lamiz. Shayh o'z e'tiqodida mustahkam turib, islom tariqatidagi "Og'ir kunda vatanni tashlab ketgan kishi iymonsizdir" degan aqidaga amal qildi.

O'z vatani ozodligi yo'lida qo'lga qilich olib, dushmanga qaqshatqich zarbalar keltira olgan Xorazmning mard o'g'loni Jaloliddin Manguberdidir. Jaloliddin Manguberding hayoti va vatanga e'tiqod yo'lidagi faoliyatini chuqur tahlil asosida o'rganish o'smir yoshdagi o'quvchilarning vatanga e'tiqod, ona-Vatanga cheksiz muhabbat, g'urur va iftixor, vatan va xalq tinchligi yo'lida jon fido etish, insonparvarlik kabi qarashlarini tarkib toptirish va takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jaloliddin Manguberdi butun hayoti davomida o'z xalqi va vatanini sevdi, tarixi va madaniyatini yuksak qadrladi, ona tabiat go'zalliklarini qalban his qildi, ardoqladi.

O'zbek millatini dunyoga tanitgan bobomiz Amir Temurdir. U nafaqat millatni dunyoga mashhur qildi, vatanning sarhadlarini kengaytirib, markazlashgan, cheksiz hududga ega bo'lgan mamlakat barpo etib, ilmu ma'rifatni rivojlantirdi, ajoyib va go'zal bog'u rog'lar, tog'lardek yuksak minora, obidalar barpo etdi. O'z millati qadriyatlarini ulug'ladi, ularning qadriga etdi Millat taqdiri bilan yashash, vatanga e'tiqod, adolat, insoniylik uning butun hayotiy faoliyatini tashkil etdi. Shu bois Amir Temur "Kuch adolatdadir" degan hukmni chiqardi. Bu hikmat asrlar davomida xalqimiz uchun asosiy yo'riqnoma bo'lib kelmoqda.

Shoir Alisher Navoiy vatan tushunchasini ona yurt, o'rin, tug'ilib o'sgan joy, maskan, manzil ma'nolarida qo'llagan. U o'zining "I lay rat ul-abror" dostonida vatanga bo'lgan e'tiqodini, mehr-muhabbatini namoyon etgan.

Navoiy butun hayoti davomida xalq g'ami, dardi, vatanni obodonlashtirish qayg'usi bilan yashadi, ijod qildi. Shu sabab uning barcha asarlarida vatanga

muhabbat, e'tiqodning yuksak namunasini ko'rish mumkin.

Zahridin Muhammad Bobur asarlarini o'qiganda, vatan, hayotga bo'lgan muhabbat ifodalanganligiga guvoh bo'lamiz.

U vatanparvar shoir sifatida, har doim inson va uning erki, vatanga muhabbat va sadoqatni kuyladi, ilm-ma'rifat va yurtga e'tiqodni targ'ib qildi. Bobur asarlari va uning hayot yo'li bilan tanishar ekanmiz, har bir misrada uning vatanga e'tiqodi ifodalanganligini ko'ramiz.

Tarixiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, har bir shoir, olim o'z Vatanini ulug'lagan, uni o'z asarlarida madh etgan. Uning boyliklari, go'zalliklari bilan faxrlangan. Vatan azal - azaldan barcha musulmon xalqlari uchun muqaddas sajdagoh hisoblangan. Shuning uchun ham vatanparvarlik tuyg'usini boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida shakllantirish uchun buyuk siymolar ijodini, ularga bosqichma -bosqich izchil tarzda o'rgatib borish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Karimov I. A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent. 1998.- 64 - bet.
2. Axrorov Yu., Qobilova R. O'rta Osiyo mutafakkirlarining pedagogik qarashlari.- Samarqand: Sam DU nashri, 1999.- 57-bet.
3. Shodiyev N. O'rta Osiyo mutafakkirlarining pedagogik merosi xorij zamonaviy ta'lim texnologiyasida. "Xorijiy ta'limning dolzarb muammolari" mavzusidagi xalqaro konfrensiyasi materillari. - Samarqand, 1999.

ФОРМИРОВАНИЕ ЧУВСТВА ПАТРИОТИЗМА У УЧЕНИКОВ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА.

Х.Б.Нарбутаев (ТерГУ)

Резюме

Воспитание учеников младшего школьного возраста чувства патриотизма на основе национального духа и традиций.